

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abduqodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукрова	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
Х.С.Шукрова	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



УО'К: 8.1751

**DO'STLIK VA DUSHMANLIK KONSEPTLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI:
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA**

**LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF FRIENDSHIP AND ENMITY
IN UZBEK AND ENGLISH**

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ «ДРУЖБА» И «ВРАГ» В
УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

Ergasheva Gulzoda Shermurod qizi 

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi "do'stlik" va "dushmanlik" konseptlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu konseptlarni ifodalovchi asosiy nominant leksemalar – "do'st/dushman" va "friend/enemy" so'zlarining etimologik kelib chiqishi, ularning sinonimik va antonimik qatorlari, semantik maydon ichidagi joylashuvini o'raniqilgan.

Abstract

This article analyzes the lexical-semantic concepts of "friendship" and "enmity" in Uzbek and English. The study examines the etymological origin of the main nominative lexemes expressing these concepts - "friend/enemy", their synonymous and antonymic series, and their location within the semantic field.

Аннотация

В данной статье понятия «дружба» и «враг» в узбекском и английском языках анализируются с лексико-семантической точки зрения. В исследовании изучено этимологическое происхождение основных именной лексемы, репрезентирующих данные концепты, - «друг/враг», их синонимические и антонимические линии, а также их расположение в семантическом поле.

Kalit so'zlar: do'stlik, dushmanlik, leksik-semantik, konsept, sinonim, semantik, tahlil, maqollar

Key words: friendship, enmity, lexical-semantic, concept, synonym, semantic, analysis, proverbs

Ключевые слова: дружба, вражда, лексико-семантика, понятие, синоним, семантика, анализ, пословицы.

KIRISH

Do'stlik konsepti bilan bog'liq maqollarning pragmatik tahlilida do'stlik leksemasining sinonimik qatorini o'raniqish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, sinonimik qator tahlili maqollardagi do'stlik tushunchasining semantik maydonini yanada kengroq olib beradi. Masalan, o'zbek tilidagi do'st, yor, birodar, og'ayni, qadrondan kabi so'zlar semantik maydonning turli nuqtalarini yoritib, do'stlik munosabatlарining turli darajalarini va xususiyatlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, maqollarda qo'llanilgan sinonimlarning pragmatik ma'nolari kontekstga qarab o'zgaradi. Masalan, *Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib* maqolida *do'st* so'zi o'rniga *birodar* yoki *og'ayni* ishlataliganda pragmatik ma'no biroz farq qiladi, chunki har bir sinonim so'z o'zining nozik ma'no ottenkalariga ega. Qolaversa, sinonimik qator tahlili maqollarning lingvokulturologik qatlamini olib berishga yordam beradi. Chunki har bir sinonimdag'i ma'no nozikliklari ma'lum bir xalqning do'stlik tushunchasi haqidagi tasavvurlarini, qadriyatlarini va madaniy stereotiplarini aks ettiradi. Va nihoyat, eng asosiy jihatni do'stlik leksemasining sinonimlarini o'raniqish maqollarning stilistik xususiyatlarini ham olib beradi. Ba'zi sinonimlar ko'tarinki uslubga xos bo'lsa (birodar), boshqalari so'zlashuv uslubiga xos (oshna) bo'lishi tabiiy hol.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Ingliz tilida do'stlik va dushmanlik konseptual binar oppozitsiyalari uchun **friend/enemy** hamda **friendship/enmity** leksemalari nominant leksemalar hisoblanadi. Dastlab mazkur

Ileksemalarning etimologiyasini bilib olish maqsadga muvofiqdir. *Friend* leksemasining ingliz tilida eng qadimgi yozma manbalarda uchrashi XII asrga (1175-yil) to'g'ri keladi. O'sha paytlarda mazkur leksema **frend**, **freond**, **freendes**, **frendis** va **frende** ko'rinishlarida qo'llanilganligi haqida dalillar[1] mavjud. *Friend* ko'rinishida esa 1637-yilda ya'nii XVII asrda qo'llanila boshlagan. Quyida Oksford ingliz tili lug'atida keltirilgan asosiy leksik ma'nosini keltirib o'tamiz:

"A person with whom one has developed a close and informal relationship of mutual trust and intimacy; (more generally) a close acquaintance. Often with adjective indicating the closeness of the relationship, as best, good, close, etc."

(“O'zaro ishonch va yaqinlik asosida yaqin va norasmiy munosabatlar o'rnatgan shaxs; (umumiyoq) yaqin tanish. Ko'pincha munosabatlarning yaqinligini ko'rsatadigan sifatlar bilan, eng yaxshi, yaxshi, yaqin va hokazo.)

1-rasm. Friend leksemasining paydo bo'lishi[2].



Zamonaviy ingliz tilida mazkur leksema ham ot ham fe'l so'z turkumi shaklida qo'llanilib, uning faolligi “Zamonaviy Amerika Ingliz tili Korpusi”[3] (Corpus of Contemporary American English) statistikasiga ko'ra ushbu korpusda 193041 marotaba qo'llanilganligi ma'lum bo'ldi. Uning derivatlari esa hayratlanarli darajada ko'p ekanligi ham ushbu leksemaning tildagi ahamiyatini ko'rsatib beradi: **semifriend**, **girlfriend**, **friendling**, **schoolfriend**, **friendsome**, **penfriend**, **e-friend**, **backfriend**, **friendly**, **misfriend**, **friendly**, **cyberfriend**, **friendship**, **frenemy**, **stepfriend**, **friendless**, **superfriend**, **friendhood**, **friendom**, **friendish**, **merfriend**, **womanfriend**, **boyfriend**, **ex-friend**, **nonfriend**, **playfriend**, **manfriend**, **friendworthy**, **friendly**, **friendless**, **stepfriend**[4] va boshqalar.

Friend leksemasi keng sinonimik qatorga ega bo'lib, “Merriam Webster” online lug'atidan olingen ma'lumotlarga ko'ra **buddy**, **colleague**, **confidant** kabilar eng yaqin sinonimlar hisoblansa, **partner**, **comrade**, **confidante**, **chum**, **compadre**, **acquaintance**, **mate**, **familiar**, **companion**, **intimate**, **fellow**, **alter ego**, **musketeer** kabilar yaqin periferial zonadagi sinonimlardir. **Crony**, **amigo**, **peer**, **associate**, **ally**, **collaborator**, **supporter**, **accomplice**, **benefactor**, **cohort**, **blood**, **brother**, **hearty**, **sympathizer**, **sport**, **pen pal**, **hobnobber**, **main man**, **abettor**, **friendly**, **well-wisher**, **abetter**, **confederate** kabilar uzoq periferial zonadagi sinonimlar hisoblanadi.

Friend leksemasining antonimi esa enemy leksemasi bo'lib, ushbu leksema ham o'zining boy etimologik tarixi bilan ajralib turadi. Bu so'z XIII asrning boshlarida “biror kishiga nisbatan nafratli va zarar etkazishga intiluvchi” sifatida izohlangan. U qadimgi fransuzcha “enemi” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, XII asrda paydo bo'lgan, IX asrda esa “inimi” shaklida mavjud bo'lgan.

“Enemy” so'zining lotin ildizi “inimicus” bo'lib, bu “do'st emas” degan ma'noni anglatadi. Bu so'z sifatdan kelib chiqqan ot bo'lib, “dushman” yoki “begona” degan ma'nolarga ega. Lotin tilidagi “in-” prefaksi “emas” va “amicus” so'zi “do'st” degan ma'noni beradi.


Ingliz tilida bu termin 1300-yillarda “Xudoning dushmani, ishonchisiz, jaholatli” kabi turli ma'nolarni qamrab olgan. XIV asr oxirida esa “Iblis”ni ifodalashda ham ishlatalgan va 1600-yillarga kelib, urush yoki nizodagi qurolli dushmanlarni anglatadigan atama sifatida kengaygan.

Qiziqarli jihat shundaki, ko'plab hind-yevropa tillarida shaxsiy dushmanlar va urushdag'i dushmanlar uchun atamalar mavjud, ba'zi tillarda bu tushunchalarni farqlanadi. Masalan, yunoncha “polemioi” va lotincha “hostis” (bu “inimicus”dan farq qiladi) bu farqni ko'rsatadi. Rus tilida “neprijatel” va “vrag” atamalari o'rtaida farq bor. O'zbek tilida esa dushman shaxsiy adovatdag'i insonga ham, urushdag'i insonga nisbatan ham ishlatsa-da, alohida “yov” leksemasi ko'proq urushdag'i dushmanni nazarda tutadi.

TILSHUNOSLIK

Umuman olganda, “enemy” leksemasining evolyutsiyasi til tarixida dushmanlik va to’qnashuv mavzularini aks ettirib zamonaviy ingliz tilida ham faol qo’llanilib kelmoqda.

2-rasm. Enemy leksemasining paydo bo‘lishi.



Enemy leksemasi ham keng sinonimik qatorga ega bo‘lib, leksikografik manbalarga ko‘ra **opponent, foe, hostile** kabilar eng yaqin sinonimlar hisoblansa, **adversary, antagonist, attacker** kabilar yaqin periferal zonadagi sinonimlardir. **Archenemy, rival, competitor, combatant, invader, assailant, archfoe, nemesis, ill-wisher** kabilar uzoq periferal zonadagi sinonimlar hisoblanadi.

Har ikki tilda ham mazkur leksemalarning yadro va periferik zonalari mayjud bo‘lib, bu esa ushbu nominant leksemalarning sinonomik va antonomik paradigmalari orqali shakllanadi. Bunda tilshunoslikdagi leksik-semantik maydon nazariyasi tamoyillariga tayangan holda ingliz va o‘zbek tillarida do’stlik va dushmanlik konseptlari verbalizatorlarining leksik va semantik maydoni aniqlanadi.


Struktural tilshunoslik nazariyasiga ko‘ra, tilning har bir elementi alohida-alohida emas, balki yaxlit sistema ichidagi boshqa elementlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganilishi lozim. Bu yondashuv tilni dialektik qarashlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Struktur tilshunoslikning muhim yutuqlaridan biri shundaki, u tilni faqat statik hodisa sifatida emas, balki dinamik rivojlanuvchi sistema sifatida tadqiq etadi.

“Maydon” tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishi va uning evolyutsiyasi alohida e’tiborga molik. Dastlab fizika sohasida qo’llanilgan bu atama (masalan, elektromagnit maydon, gravitatsion maydon kabi) keyinchalik lingvistik hodisalarни tizimli o‘rganishda samarali metodologik vosita sifatida o‘zini oqladi. Semantik maydon nazariyasing shakllanishi XIX asr o‘rtalarida V. fon Gumboldtning fundamental lingvistik g‘oyalardan boshlanib, 1930-yillarga kelib G. Ipsen, A. Jolls, V. Porzig va Y. Trir kabi nemis va shveysariyalik tilshunoslар tomonidan yanada rivojlantirildi[5].


Semantik maydon nazariyasing metodologik ahamiyati shundaki, u leksik birliklarni paradigmatic munosabatlar asosida tizimlashtirishning samarali usulini taklif etadi. Bunda maydon a’zolari uchun integral sema vazifasini bajaruvchi umumiy semantik komponent maydonning markaziy o‘qi vazifasini bajaradi. Maydonning markazida konseptning nominatni, atrofida esa yaqinlik darajasiga ko‘ra uning sinonimlari joylashtiriladi.

Quyida **friend** va **enemy** leksemalarining sinonimik paradigmاسini orqali do’stlik konsepti verbalizatorlarini leksik-semantik maydon ichida joylashuvini diagramma orqali ko‘rish mumkin:

3-rasm Ingliz tilida do’stlik konsepti verbalizatorlarining leksik-semantik maydon ichida joylashuvi.



4-rasm Ingliz tilida dushmanlik konsepti verbalizatorlarining leksik-semantik maydon ichida joylashuvi.



Har bir zona **friend/enemy** leksemalari bilan turli darajadagi semantik bog'lanishni ko'rsatadi. Markazdan uzoqlashgan sari so'zlarning semantik bog'lanishi zaiflashib, qo'shimcha konnotativ ma'nolar paydo bo'lmoida. **Friend** konsepti verbalizatorlarining leksik-semantik maydoni **enemy** konsepti verbalizatorlarining leksik-semantik maydoni bilan o'zaro antonimik munosabatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'z navbatida, **friendship** leksemasining ham leksik semantik maydoni **enmity** leksemasining leksik semantik maydoni bilan antonimlik munosabatini ifoda etadi.

Mazkur maydonlarni aniqlab olish ingliz va o'zbek tillarida do'stlik va dushmanlik konseptlari ifodalovchi maqollar tadqiqida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo ushbu paradigmalar yordamida biz leksikografik manbalardan maqollarni ajratib olishimiz mumkin. Masalan, **friend** leksemasi ishtirokida "A friend in need is a friend indeed" yoki "Keep your friends close and your enemies

TILSHUNOSLIK

closer" kabi maqollar mavjud bo'lsa **buddy** yoki **pal** leksemali orqali ham maqolalarni izlab topish imkonи paydo bo'ladi. Masalan, quyidagi turg'un birikmalar ingliz tilida so'zlashuvchilar tomonidan og'zaki nutqda ko'p ishlatalishi ma'lum bo'ldi: "**No man is an island, every pal needs a pal**" va "**A friend in need is a friend indeed, but a pal in beer is a pal indeed**".

Qolaversa, sinonomik qatordagи leksemalar orqali maqolalarda semantik sinonomik munosabatni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi ingliz maqollarining birida **friend** leksemasi ikkinchisida esa uning sinonimi **true companion** leksemasi ishlatalmoqda va maqolning umumiyl ma'nosi ham bir birini takrorlamoqda:

A friend in need is a friend indeed

A true companion is known in adversity

Qolaversa, ushbu maqollarda ishlatalayotgan **indeed** va **adversity** leksemalari ham o'zaro sinonimlik munosabatini ko'rsatmoqda. Quyida yana xuddi yuqoridagi maqol bilan sinonimlikni ifoda etayotgan boshqa bir ingliz maqolini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

A friend in need is a friend indeed

A true ally stands by you in times of trouble

Ushbu maqollarda ham **friend** va **ally** sinonim leksemalari hamda **indeed** va **trouble** sinonim leksemalari ishlatalmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'zbek tilida do'stlik va dushmanlik konseptlarini ifodalovchi do'st va dushman leksemalarining ham leksik tahlilini amalga oshirish o'rinnlidir. O'zbek tilidagi "do'st" leksemasi, o'zaro yaqinlik, ahillik va inoq bo'lishni anglatadi. Bu so'zning etimologik tarixi qadimiy turkiy tillarga borib taqaladi. O'zbek tilida "do'st" leksemasi ikki yoki undan ortiq kishining bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatini, o'zaro ishonch va yordamni ifodalaydi.

"Do'st" so'zining zid ma'nosi "dushman" bo'lib, bu ikki tushuncha o'rtasida aniq farq mavjuddir. Do'stlik, insonlar o'rtasidagi iliq aloqalarni "qadrdon do'st", "chin do'st", "vafodor do'st" kabi iboralar orqali ifodalaydi. Ushbu iboralar do'stlikning qiymati va ahamiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Do'stlik haqidagi maqollar esa bu konseptning ahamiyatini ko'rsatadi: "Do'st safarda bilinadi", "O'z do'stim deb sir aytma, do'stingning ham do'sti bor[6]".

Shuningdek, diniy tasavvufda "do'st" so'zi Allohga murojaat shakli sifatida ham ishlataladi, bu esa insonlarning ruhiy aloqalari va ilohiy sevgini anglatadi. Masalan, "Hey do'st, shaydullo" kabi iboralar diniy va ma'naviy kontekstda Allohga nisbatan do'stlikni ifodalaydi:

Har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: Hey do'st, shaydullo, banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo. (A. Qahhor, Bemor).

O'zbek tilida do'stlik munosabatini ifodalovchi leksemalar paradigmaсинi turlicha klassifikatsiya qilish mumkin. Do'stlik munosabatidagi **do'st, o'rtoq, birodar va oshna, sirdosh, dildosh** kabi leksemalari yadro osti zonadagi sinonimlar hisoblanadi. **Jigar, qadrdon, sherik, hamroh** leksemalari esa yaqin periferal zonadagi. **Hamkor, qadrdoш** kabilar esa uzoq periferal zonadagi leksemalar hisoblanadi.

O'zbek tilida dushmanlik konsepti verbalizatorlarining leksik-semantik maydoni tarkibining yadro osti zonasiga **yov, g'anim, muxolif, yovuz va ag'yor** leksemalarini kiritdi. **Raqib, kuahanda, hasadgo'y, baxil** leksemalari yaqin periferal zonaga kiritilsa, **badxoh, raqobatchi, bellashuvchi, xarif** kabilar uzoq periferal zonaga kiritildi.

O'zbek tilida ham maqollarning o'zi bir biriga nisbatan sinonomik munosabatini ham ifodalaydi. Quyidagi 2 ta maqol semantik ma'nosiga ko'ra bir-biriga sinonim maqollar hisoblanadi:

1) do'st kulfatda bilinar.

2) do'st safarda bilinar, og'a-ini kulfatda

Do'stlikka oid maqollarda sadoqat, ishonch va o'zaro yordam kabi asosiy tushunchalar ta'kidlanganidek, hushyorlik, ehtiyotkorlik kabi hayotiy strategiyalar ham maslahat beriladi. Masalan:

1) sinalamagan do'stga sir aytma

2) har kimni do'stim dema, tandagi po'stim dema

Yuqorida ta'kidlangan maqollar uchun ingliz tilida **Before you choose a friend eat a bushel of salt with him** maqoli sinonim bo'la oladi.

Maqol xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlaridir. Dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janr deyarli yo'q. Z.T. Nishanova ta'biri bilan aytganda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan turli xalq maqollarida bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi[7].

Ingliz tilida ham bir necha maqollar semantik ma'nosiga ko'ra sinonimlik munosabatiga kirishadi. Quyidagi maqollar ma'nosiga ko'ra bitta ma'noni, ya'ni eski do'stni sinalgan do'stning qadriga etish, undan osonlikcha voz kechmaslik haqidagi hukmnini ifodalaydi.

1. Old friends and old wine are best.
2. Old tunes are sweetest, old friends are surest.
3. Forsake but old friends for new.
4. Make new friends but keep the old, for one is silver and the other is gold.

Yuqoridagi maqollarning o'zbek tilida ham analogi mavjud bo'lib u "**Qadim do'stlik zanglamas**" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tadqiqotga tortilgan har ikki til ham boy qadimiy tarixga, bir-biri bilan umumiylilik kasb etuvchi yuksak madaniyat bilan bir qatorda, bir-birini takrorlamas turfa xil urf-odat va an'analarga ham ega ekanligi yuqoridagi kabi do'stlik konseptini ifodalovchi "**A friend in need is a friend indeed**" va "**True friends stand by you in difficult times**" yoki "**Birds of a feather flock together**" and "**Like attracts like**" kabi sinonim maqollardan ko'plab namunalar keltirishimizga zamin yaratdi. Ammo tadqiqot hajmini cheklanganligini inobatga olib, keyingi paragrafda antonim maqollarni tahlil qilib o'tamiz.

Dushmanlik munosabatlari tasvirlaydigan maqollarni tahlil qilishda antonimik munosabatlarni o'rganish tobora ortib bormoqda. Bu lingvistik konstruktsiyalar shaxslararo munosabatlardagi murakkab ijtimoiy-madaniy dinamikani yoritib semantik qarama-qarshiliklarni vujudga keltiradi. Masalan, **Keep your friends close and your enemies closer** va **Avoid those who wish you harm** maqollari insonlar orasida vujudga keladigan mojarolarda turli xil strategik yondashuvlarni tavsiya etadi va keskin antonimlik kontrastini ifodalaydi. Chunki ushbu ikki maqol semantik ma'nosiga ko'ra bir-birining zidini ko'rsatmoqda.

A friend to all is a friend to none hamda **An enemy of my enemy is my friend** kabi maqollar esa ijtimoiy munosabatlarning soddalashtirilgan ikkilik talqiniga qarshi chiqadigan murakkab antonimik munosabatlarni ifoda etmoqda.

XULOSA

Maqollardagi sinonimlik va antonimlik munosabatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir nafaqat qiziqarli, balki chuqur lingvistik tadqiqot mavzusidir. Ushbu munosabatlar shunchaki leksik alternativlarni ifodalabgina qolmay, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarda o'zaro ta'sirning nozik madaniy konseptlarini aks ettiruvchi murakkab ma'no yaratish strategiyalarini ham ifoda etadi. Demak, biz maqollarni o'rganar ekanmiz, ularning nafaqat so'z boyligini, balki madaniy qadriyatlarimizni ham o'rganamiz. Ushbu lingvistik mexanizmlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar lingvomadaniy munosabatlarning kognitiv qayta ishlanishi, do'stlik va dushmanlikning madaniy ahamiyati hamda murakkab lingvomadaniy va pragmatik bilimlarni kodlash uchun lingvistik strategiyalar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elektron manba: https://www.oed.com/dictionary/friend_n?tl=true [Murojaat sanasi: 12.12.2024]
2. Surat <https://ssl.gstatic.com> saytidan olindi.
3. Elektron manba: <https://www.english-corpora.org/coca/> [Murojaat sanasi: 12.12.2024]
4. Elektron manba: <https://conceptnet.io/c/en/friend?rel=r/DerivedFrom&limit=1000> [Murojaat sanasi: 12.12.2024]
5. Gao Ch, Xu B. The application of semantic field theory to English vocabulary learning. – Theory and Practice in Language Studies, Vol 3, – Finland, 2013. – P. 2030.
6. Gao Ch, Xu B. The application of semantic field theory to English vocabulary learning. – Theory and Practice in Language Studies, Vol 3, – Finland, 2013. – P. 2030.
7. Electron manba: <https://izoh.uz/word/do%E2%80%98st>
8. Nishanova Z.T. Alimbayeva Sh. T. Maqollarda millat psixologiyasi. - Toshkent: 2019. - 25 b.